



O'ZBEKISTON JURNALISTIKA VA
OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR
UNIVERSITETI



JURNALISTNING PROFESSIONAL KOMPETENTLIK MEZONLARI

Ravshan Zokirovich Raimjonov

*O'zbekiston jurnalistika va
ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
O'quv ishlari bo'yicha prorektori,
PhD., dotsent*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jurnalistning professional kompetentligiga nisbatan ilmiy-nazariy qarashlar umumlashtirilgan va to'ldirilgan, yangi nazariy va empirik ma'lumotlar taqdim etilgan.*

Kalit so'zlar: *kompetentlik, ommaviy axborot vositalari, professional kompetensiya, axborot makoni*

Аннотация: *В данной статье обобщены и дополнены научно-теоретические взгляды на профессиональную компетентность журналиста, представлены новые теоретические и эмпирические данные.*

Ключевые слова: *журналист, компетенция, СМИ, профессиональная компетенция, информационное пространство*

Abstract: *This article summarizes and supplements scientific and theoretical views on the professional competence of a journalist, presents new theoretical and empirical data.*

Keywords: *journalist, competence, mass media, professional competence, information space*

Bugungi kunda zamonaviy ommaviy axborot vositalari doimiy tarzda ijodiy izlanishlar, rivojlanishning eng optimal yo'llarini tanlash kabi jo'shqin voqelik bilan to'qnashmoqda. Ushbu holatlar jurnalistning professional kompetentligi mezonlari va o'ziga xosligi borasidagi masalani jiddiy ravishda qayta qo'rib chiqish ahamiyatini orttirmoqda. OAV globallashuvi va konvergensiyanlashishi nuqtai nazaridan jurnalistlarga axborot makonida ularning professional faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida yangi talablar qo'yilmoqda. Jurnalistlar, zamonaviy tahdidlarni hisobga olmay turib, o'zlarini professional jihatdan yangidan o'zgartira va yangi sharoitlarga moslasha hamda ijodiy shablonlar va eskirgan ish uslubidan voz kecha olmaydilar. Shu sabab jurnalistikaning yangi maktabini shakllantirish masalasi dolzarb bo'lmoqda. Ushbu maktab konvergent tahririyatlarda ishlaydigan va ularni boshqara oladigan, ommaviy kommunikatsiyalarni ijodiy va tijorat jihatdan rivojlantirish uchun, auditoriya bilan samarali, ko'p qirrali va o'zaro manfaatli dialogni tashkillashtira oladigan aynan raqamli davrga xos bo'lgan mutaxassislarni yetkazib berishi birlamchi ahamiyat kasb etadi.



O'ZBEKISTON JURNALISTIKA VA
OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR
UNIVERSITETI



Ayni ma'noda mazkur maqolamizda jurnalistning professional kompetentligiga nisbatan ilmiy-nazariy qarashlar umumlashtirilgan va to'ldirilgan, o'rganilayotgan muammo bo'yicha yangi nazariy va empirik ma'lumotlar taqdim etilgan, ushbu sohada faoliyatni takomillashtirish bo'yicha takliflar shakllantirilgan va ilmiy jihatdan asoslangan. Shuni ta'kidlash lozimki, "professional kompetensiyalar" turli fanlarda o'rganish predmeti hisoblanadi. Faylasuflar ularni turmushga moslashish vositasi sifatida izohlaydilar. Ular insonni, uning qarashlari, qiziqish va e'tiqodlarini aynan kasbi belgilashi haqidagi fikrga tayanadilar. Xususan, D.L.Tompson va D.Pristli "professional kompetentlik" tushunchasini yuqori darajada tizimlashtirilganligi bilan ajralib turuvchi, axloqiy standartlarga ega va professional kodeksga asoslangan bilimlar majmui sifatida izohlaydilar.

Yevropa Kengashi tomonidan hayot va faoliyatning turli sohalarida funksional jihatda malakali va muvaffaqiyatli bo'lish uchun har bir yevropalik ega bo'lishi lozim bo'lgan asosiy kompetensiyalar ro'yxati ajratilgan:

- siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar – kollektiv hamkorlik, o'z harakatlari uchun mas'ullik, qaror qabul qilish, muammoli va ziddiyatli vaziyatlarga yechim topish, kommunikativ aloqalar, dialoglarni o'rnatish, kelishuvlar tuzish, shartnomalar tuzish va amalga oshirish, ijtimoiy ahamiyatli va foydali faoliyat olib borishni nazarda tutadi.

- madaniyatlararo kompetensiyalar – o'zganing fikri, qarashlari, an'ana va odatlari, qadriyatlarini, tarixiy va madaniy merosi, tili, e'tiqodiga nisbatan hurmat va bag'rikenglikni rivojlantirish.

- kommunikativ kompetensiyalar – jamiyatga, uning qoidalariga moslashishga, do'stona, o'rtoqlik va professional hamkorlik munosabatlarini qurish, turli odamlar va jamoalar bilan hamkorlik o'rnatishga, professional jihatdan rivojlanishga ko'maklashuvchi og'zaki va yozma kommunikatsiya ko'nikmalarini o'zlashtirish bilan bog'liq.

- informatsion kompetensiyalar – axborot jamiyati taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib, axborotni qidirish va qayta ishlash, saqlash va amalda qo'llash sohasidagi bilim va ko'nikmalarni egallashni, axborot texnologiyalarini o'zlashtirishni, zamonaviy axborot resurslari va metodlari bilan ishlash layoqatini talab qiladi. O'rganish, o'zlikni anglash, o'z ustida ishlash borasidagi kompetensiyalar butun umr davomida rivojlantirilib, kasbiy va ietimoiy taraqqiyotda o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Inson o'z





tajribasiga tayanishi, undan bilimlarni ajratishi, ularni tizimlashtirishi va tartiblashi, o'z ta'lim, tadqiqot usullarini, turli sohalarda ishni tashkillashtirishning metodlarini ishlab chiqishi, muammolarga yechim topishi, ijtimoiy harakatlanishning tez o'zgarayotgan sharoitlariga moslashishi lozim. Shunday qilib, turli bilim sohalaridagi "kasbiy kompetentlik" tushunchasi asosida mutaxassis shaxsiyatining individual-psixologik sifatlari bilan bir qatorda, jamiyat taraqqiyotining ob'ektiv shartlari, xususiyatlari va professional faoliyat uchun sharoitlari ham yotadi, degan xulosaga kelish mumkin.

Jurnalist mehnati barcha zamonlarda jamiyat uchun katta qiymatga ega bo'lib kelgan. Shu bois jamiyat doimo jurnalistlar faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratishga intiladi va, o'z navbatida, mazkur kasb vakillariga jiddiy talablar qo'yadi. Jamiyatda jurnalistga nisbatan shakllangan umid va ishonch o'z tayyorgarligi va amaliyotiga yo'nalgan "optimal" professionalga bo'lgan ijtimoiy buyurtmani ifodalaydi. Jamiyatning jurnalistga "buyurtmasi" unga nisbatan qo'yiladigan kasbiy-malakaviy talablarda namoyon bo'ladi.

Ushbu talablarni to'rt guruhga ajratish mumkin:

- axloqiy-etik (halollik, kamarbastalik, sezgirlik);
- psixologik (temperament, fe'l-atvor, xotira, fikrlash, tasavvur xususiyatlari);
- ijtimoiy-fuqarolik (ijtimoiy mas'uliyat, prinsipiiallik, baholashda xolislik, haqiqat uchun kurasha olish);
- kasbiy (muloqotga kirishuvchanlik, badiiy qobiliyatlar, kompetentlik).

Bizningcha, sanalgan guruhlar orasida eng muhimi – kasbiy fazilatlaridir.

Har qanday mutaxassisning kompetentligi kompetensiyalarga, ya'ni muayyan talablarga asoslanadi. Ijodiy kasblar, xususan, jurnalistika uchun kadrlar tanlashda, tashkilotlarning kadrlar siyosatida ular asosiy rol o'ynaydi. Har bir mutaxassis umumiy kompetensiyaga, ya'ni jamiyat hayotining barcha jabhalariga oid tayanch bilimlarga ega bo'lmog'i lozim. Bu bilimlar doimo yangilanib borishi kerak. Aynan shuning uchun umumiy dunyoqarashni kengaytirish yo'llari: mustaqil ta'lim, o'z ustida ishlash, malaka oshirish kurslarini o'tish, hayotiy tajribani orttirish kabilar mavjud. Har bir usul o'zicha samarali, birgalikda esa muvaffaqiyatga eltishi mumkin. Jurnalist kasbiga kelsak, uning faoliyatini keng umumiy kompetensiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jurnalist ko'pincha OAVda turli muammolarni yoritadi (masalan, tuman gazetalarida mutaxassis yetishmasligi sababli bir jurnalist ta'lim tizimidagi yangiliklar haqida ham, qishloq xo'jaligi muammolari haqida ham yozishi mumkin).





Professional jurnalist shaxsiyati dunyosi kasbining ob'ektiv talablariga muvofiq shakllanadi. Professional xislatlarning bunday majmui doimo diqqat markazida bo'lib kelgan. Jumladan, jurnalistlar xatti-harakatlari, shaxsiy fazilatlari haqida ilk bor 1755 yilda, rossiyalik mashhur olim M. V. Lomonosovning "Falsafa erkinligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bayon va insholarda jurnalistlar majburiyatlari haqida mulohazalar" maqolasida so'z yuritilgan. Mazkur ilmiy maqolada jurnalist rioya etishi shart bo'lgan yetti qoida keltiriladi:

- o'z imkoniyat va salohiyatini baholash, zero u biz bilgan narsa va joylar haqida ma'lum qilishi emas, balki buyuklar tomonidan yaratilgan asarlardan yangi va muhim fikrlarni aniqlashdek mushkul va murakkab ishga kirishadi;
- muallifga nisbatan noxolislikdan qutula olish, ya'ni xolis bo'lish;
- tasvirlanayotgan insholarni ikki guruhga ajratish: alohida mualliflar va ilmiy hamjamiyatlardan tomonidan yozilganlarga (bunda Lomonosov jurnalistning talqin etilayotgan matnga nisbatan yuqori darajada e'tiborli bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi, toki u qo'pol xatolar, loqaydlik va shoshqaloklikka yo'l qo'ymas).
- farazlarni inkor etishga, ayblashga shoshilmaslik, zero ular buyuk aql sohiblarining haqiqatga erishishlarida yagona yo'l bo'lishi mumkin;
- boshqalarning fikr va mulohazalarini o'zlashtirmaslik;
- jurnalist biror masalani batafsil o'rganib, chuqur mulohaza qilgandan so'nggina ayrim nazariya, nuqtayi nazarlarni inkor qilishga haqli;
- "o'zining ustunligi, nufuzi, mulohazalarining qimmatligidan havolanib ketmasligi zarur".

2006 yilda Estoniyaning Tartu shahrida Yevropa jurnalistika maktab va fakultetlari o'nta asosiy jurnalist kompetensiyalari qayd etilgan Deklaratsiyaning imzoladilar. Bu kompetensiyalar o'zida muhim kasbiy vazifalarni bajarishda talab qilinuvchi bilim, malaka va ko'nikmalar majmuini ifodalaydi. Har bir kompetensiya talaba bilishi va/yoki tushunishi hamda ta'lim yakuniga yetgach, namoyon eta bilishi kerak bo'lgan beshta malaka xarakteristikasidan iborat.

Tartu deklaratsiyasi media va jurnalistika ta'limi mutaxassislariga fikr almashish uchun umumiy til, shuningdek, kurs va o'quv rejalar ishlab chiqishda umumiy talablarni taqdim etdi. Quyida Tartuda ishlab chiqilgan o'nta kompetensiya tavsifi berilgan:

1. Jurnalistikaning ijtimoiy ahamiyatini va undagi o'zgarishlarni tushunish





2. Muayyan mediakanal yoki OAVning ijtimoiy va ishlab chiqarish maqsadlariga mos mavzu va ularning aspektlarini topish
3. Jurnalistik faoliyatni tashkil etish va rejalashtirish
4. Fakt to'plashning an'anaviy texnikalari va tadqiqot usullaridan foydalangan holda axborotni tezkorlik bilan to'plash
5. Asosiy axborotni ajratish
6. Axborotni jurnalistik tarzda tizimlash, tartiblash
7. Axborotni samarali jurnalistik shakl va tegishli til uslubini qo'llagan holda bayon etish
8. Jurnalistik faoliyat natijalarini baholash va uning uchun mas'ullik his etish
9. Jamoa bilan hamkorlik qilish, tahririyatda ishlashga tayyor bo'lish
10. Professional media tashkilotlarda yoki frilanser sifatida ishlash .

Rossiyalik taniqli tadqiqotchi Ye.L.Vartanova, Tartu deklaratsiyasi nizomlariga tayanib, jurnalist kompetensiyalarini funksional o'ziga xosliklariga ko'ra quyidagicha tasniflaydi:

- umumnazariy kompetensiyalar (muayyan ob'ekt haqida qandaydir bilimlar, professional faoliyatda paydo bo'lgan aniq muammolarning to'liq va konstruktiv tahlilini o'tkazish va baholash, zamonaviy jamiyat qonuniyatlarini tushunish);
- instrumental kompetensiyalar (adabiy til me'yorlarini bilish, chet tilini og'zaki va yozma shaklda, dasturiy vositalar va kompyuter tarmoqlarida ishlash ko'nikmalarini egallash, Internet resurslaridan foydalanish, asosiy yuridik tushunchalarni bilish, huquqiy hujjatlardan ishda foydalana bilish va hkz.);
- tizimli kompetensiyalar (yangi g'oyalar o'ylab topish, mustaqil o'rganish, faoliyatning ishlab chiqarish profilini o'zgartirish ko'nikmasi va hkz.)
- tayanch umumkasbiy kompetensiyalar (jurnalist ishi xususiyatlarini, mediatizimlar shakllanishining tayanch prinsiplarini, turli tipdagi OAVning faoliyati xususiyatlarini, auditoriya qiziqishlari, ehtiyojlarini, mediaiste'mol xarakter bilish va tushunish).

Ye.L.Vartanova, shuningdek, jurnalistning faolligi, ochiqligi, muloqotga kirishuvchanligi, tanqidni qabul qila olishi, texnologik infratuzilma bilan ishlash qobiliyatini ham alohida ta'kidlaydi.





Shuni alohida ta'kidlash joizki, jurnalistning professional kompetentligi asosiy elementlari madaniyat va kasb tushunchalari bo'lmish "professional madaniyat" termini bilan chambarchas bog'liq.

Bundan xulosa qilish mumkinki, zamonaviy amaliyotda "professional kompetentlik" tushunchasi kasbiy faoliyat sub'ektining vazifalarni belgilangan standartlar asosida bajarish qobiliyatini anglatadi. Bu esa "professional kompetentlik" termini xodimning lavozimiga muvofiq bajarish qobiliyatini, lavozim talablari esa tashkilot yoki tarmoqda belgilangan vazifa va ularni bajarish standartlarini anglatadi.

- tizimli kompetensiyalar (yangi g'oyalar o'ylab topish, mustaqil o'rganish, faoliyatning ishlab chiqarish profilini o'zgartirish ko'nikmasi va hkz.)
- tayanch umumkasbiy kompetensiyalar (jurnalist ishi xususiyatlarini, mediatizimlar shakllanishining tayanch prinsiplarini, turli tipdagi OAVning faoliyati xususiyatlarini, auditoriya qiziqishlari, ehtiyojlarini, mediaiste'mol xarakter bilish va tushunish).

Ye.L.Vartanova, shuningdek, jurnalistning faolligi, ochiqligi, muloqotga kirishuvchanligi, tanqidni qabul qila olishi, texnologik infratuzilma bilan ishlash qobiliyatini ham alohida ta'kidlaydi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, jurnalistning professional kompetentligi asosiy elementlari madaniyat va kasb tushunchalari bo'lmish "professional madaniyat" termini bilan chambarchas bog'liq.

Bundan xulosa qilish mumkinki, zamonaviy amaliyotda "professional kompetentlik" tushunchasi kasbiy faoliyat sub'ektining vazifalarni belgilangan standartlar asosida bajarish qobiliyatini anglatadi. Bu esa "professional kompetentlik" termini xodimning lavozimiga muvofiq bajarish qobiliyatini, lavozim talablari esa tashkilot yoki tarmoqda belgilangan vazifa va ularni bajarish standartlarini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Болонская декларация. Зона европейского высшего образования. Совместное заявление европейских министров образования. г. Болонья, 19 июня 1999 года <http://iic.donntu.org/russian/ovs/bologna.html>
2. Томпсон Д.Л., Пристли Д. Социология. Вводный курс. Ингл.тилидан таржима. - М. : 000 "Фирма "Издательство АСТ"; Львов: "Инициатива", 1998. – С. 49
3. https://spravochnick.ru/pedagogika/kompetenciya_v_pedagogike/evropeyskiy_variant_klyuchevyh_kompetency_v_obrazovanii/.

